

**OILAVIY SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING MUAMMOLARI,
OILAVIY NIZOLAR**

**ADPI Pedagogika va psixologiya kafedrası
o’qituvchisi Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna
Temirboyeva Safuraxon Nazrilloqizi
ADPI talabasi**

Annotatsiya: Hozirgi kunga kelib oilaviy shaxslararo munosabatlar ziddiyatli tarzda bir necha salbiy oqibatlarni yuzaga keltirmoqda. Tanlangan mavzuning dolzarbligi oiladagi ajralishlarning zamonaviy statistikasi bilan belgilanadi. Ushbu maqolada oiladagi kelishmovchiliklarning sabab-oqibatlari, oilaviy nizolarning jamiyatga salbiy tasiri, oilaviy nizolarni bartaraf etish yo’llari haqida so’z yuritiladi.

Kalitso’zlar: Oila, shaxs, nikoh, ijtimoiy muhit, sevgi, jamiyat, tarbiya, axloq, destruktiv va konstruktiv nizolar.

Oiladagi nizolar va shaxslararo muammolar inson munosabatlarining universal jihati hisoblanadi. Moliyaviy masalalardagi kelishmovchiliklardan tortib, bola tarbiyasidagi turli fikrlargacha, oila ichidagi nizolar turli manbalardan kelib chiqishi mumkin. Ushbu mojarolarning asosiy sabablarini tushunish va samarali muloqo tstrategiyalarini o’rganish uyg’unlikni rivojlantirish va oilaviy rishtalarni mustahkamlash uchun kalit hisoblanadi.

Oilaviy nizolarning eng xarakterlilaridan biri bu er va xotin o’rtasidagi nizolardir. Oila qanday bo’lishidan qat’iy nazar nizolardan mutlaqo xoli (himoyalangan, kafolatlangan) bo’laolmaydi. Chunki oiladagi shaxslararo munosabatlar odatda nizosiz bo’lmaydi. Bu nizolar ma’lum darajada er-xotin munosabatlarini rivojlantiruvchi katalizator vazifasini o’taydi. Lekin nizoning nizodan farqi bor. Ular kelib chiqishi, tashqi ifodalanishi, takrorlanib turish tezligi (soni) va nihoyat oqibatlariga ko’ra bir-birlaridan farqlanadi. Biror-bir maxsus mezon yo’qki, shunga asosan nizolarning qaytalanishi, kuchi, darajasi va boshqa ma’lumotlari (ko’rsatkichlari)ni aniq belgilab berish (olish) mumkin bo’lsa. Bunda hamma narsa subyektning o’ziga, uning shaxsiy, psixologik xususiyatlariga, yoshiga, jinsiga, uning qo’yilishiga, nizoning qanday idrok qilinishi va boshqa omillarga bog’liq bo’ladi. Ma’lumki, bir-birlariga aynan o’xshash, mos ikki odamning bo’lishi mumkin emas, chunki shaxs va uning individualligi takrorlanmasdir. Shunday ekan ikki va undan ortiq shaxsdan (individ)dan tashkil topgan oila ham ikki, uch karra takrorlanmasdir. Bir oila uchun me’yorida bo’lgan shaxslararo munosabatlar tizimi, ikkinchi bir oilaga mutlaqo mos kelmasligi, yoki biron-bir oila uchun u qadar ahamiyatga ega bo’lmagan nizo va uning sababi boshqa oila a’zolarining o’zaro munosabatlarida jiddiy oqibatlar olibkelishi mumkin va hokazo. Shunday ekan jamiki oilalarga xos bo’lgan nizolar va ularning sabablarini yagona bir o’lcham yoki xarakteristikasi bilan ko’rsatib berish masalasi ham mantiqqa to’g’ri kelmaydigan ishdir. Lekin turli toifadagi oilalarni o’rganish, ular a’zolarining o’zaro munosabatlarini taqqoslash va shukabilar asosida ayrim nisbiy xulosalarga, mulohazalarga kelish mumkinki, shu nisbiylikdan har bir odam o’zi uchun nisbatan «tegishli» xulosalar chiqarib olishi lozim bo’ladi. Shuning uchun, biz quyida oilaviy munosabatlar, oiladagi nizolar haqida fikr yuritar ekanmiz, ularning barcha oilalarga mutlaq tegishli ekanligini da’vo qilolmaymiz. Quyidagilar ham bizning nisbiy mulohazalarimizdir.

Oilaviy nizolarturlari

1. Er-xotino’rtasidagi.
2. Qaynona-kelin o’rtasidagi.
3. Qaynona-kuyov o’rtasidagi.
4. Ovsinlar o’rtasidagi.

5. Ota-onalar va farzandlar o’rtasidagi.

Oilada yuzaga kelish ehtimoli bo’lgan nizo-janjallarning sabablarini aniqlash va ularning oldini olish masalalarini ijobiy hal qilish uchun birinchi navbatda ularni kimlar o’rtasida yuz berayotganligini farqlab olish maqsadga muvofiqdir.

. Umuman oilada er-xotin o’rtasidagi nizolarning yuzaga kelishi va rivojlanishi taxminan quyida keltirilgan sxemadagidek bo’lishi mumkin. Lekin shu nizolarning xarakteri, ularning oqibatlariga ko’ra turli oilalar va ulardagi oilaviy munosabatlar bir-birlaridan farqlanadi. Shunday ekan biz dastavval muvaffaqiyatli va muvaffaqiyasiz oilalarda ro’y beradigan nizolarni ko’rib chiqaylik. Sxemada ko’rinib turganidek muvaffaqiyatli oilalardagi nizolar biriktiruvchi va muvaffaqiyasiz oilalardagi nizolar esa ajratuvchix arakterga ega. Shuning uchun ham psixologik adabiyotlarda nizolarshartli ravishda «konstruktiv» («biriktiruvchi») va «destruktiv» («ajratuvchi») nizolargafarqlanadi. Ular, o’zlarining yuzaga kelishiga asos bo’lgan muammolar, bu muammolarning hal etilishi bartaraf etilishi, kechinishi, ishtirokchilari, oqibatlari va boshqalarning xarakteriga ko’ra bir-birlaridan farqlanadi. Biriktiruvchi nizolarning yuzaga kelishiga asos bo’lgan muammolar va ularning hal qilinishi ham erning, ham xotinning, butun oilaning manfaatlariga qaratilgan bo’ladi. Agar ular hal etilsa, buning oqibatida oilaning umumiy manfaatlariga oid muammolar o’z yechimini topadi. Bunday nizolarga oiladagi tartib, intizom, ozodalik, oila budjetini yuritish, saranjomlik, tejamkorlik, isrofgarchilikka yo’l qo’ymaslik, bola tarbiyasi va boshqa shu kabi toifadagi nizolar misol bo’la oladi. Ular asosan er-xotin o’rtasidagina yuzaga keladi, ularning ishtirokchilari ham faqat er-xotinlarning o’zlarigina hisoblanadilar. Bunday nizolarning muvaffaqiyatli hal etilishida er-xotinlarning bir-birlarini yanada yaqinroq bilib, tushunib, bir-birlarining salbiy va ijobiy xususiyatlarini o’rganib borish, bir-birlariga moslashish, muammolarni hal etish borasida hamkorlik qilish kabi oilaviy hayot mustahkamligini ta’minlashga xizmat qiluvchi jarayonlar amalga oshadi. Boshqacha qilib aytganda, bunday nizolar «er-xotinnig urushi — doka ro’molning qurishi » kabi nizolar toifasiga kiradi. Ajratuvchi nizolarda ularning yuzaga kelishiga asos bo’lgan muammo va uning yechimi er-xotinlardan birining manfaatiga qaratilgan bo’ladi. Bunday nizolarda bir tomonman faatining hal etilishi ko’pincha, ikkinchi tomon manfaatining boy berilishi hisobiga amalga oshadi. Masalan, erni yoki xotinni shaxsan o’zi uchun biron nima xarid qilishi, erning yoki xotinning ishi tufayli, o’zbek oilasi uchun xarakterli bo’lgan nizolardan bo’lmish er yoki xotinning qarindosh-urug’lari bilan bo’ladigan munosabatlar tufayli yuzaga keladigan nizolar shular jumlasiga kiradi. Bunday nizolarning hal qilinishi, ya’ni bir tomon manfaatlarining qondirilishi ko’pchilik holatlarda ikkinchi tomon manfaatlarining boy berilishi hisobiga amalga oshadi. Bunday vaziyatlarda manfaati boy berilgan tomondan orozilik, e’tiroz saqlanib qoladi va bu keyinchalik yana kuchayib navbatdagi nizoni yuzaga kelishiga asos bo’lib xizmat qilishi mumkin. Ajratuvchi nizolarda, nizo hal etilgani bilan, nizoli vaziyat saqlanib qolaveradi. Shuningdek, ajratuvchi nizolar ularni yuzaga keltirgan sabablar bevosita er-xotinlarning o’zaro munosabatlari doirasidan tashqaridagi omillarga ham bog’liq bo’ladi. Ularning sababchilari va ishtirokchilari ham ba’zan er-xotindan tashqari uchinchi inson bo’lishi mumkin, ularning hal etilishi ham er xotinlarning o’zlarigagina emas, balki shu uchinchi (boshqa) insonga bog’liq bo’ladi. Bularning oqibatida nizolarni yanada kuchayishi, sonining ortishi kuzatiladi. Ajratuvchi nizolar, aksariyat hollarda «chegaranmagan» nizolar bo’lib, o’z xarakteri, ishtirokchilari, hal etilishi va oqibatlariga ko’ra er-xotin munosabatlari doirasidan chetga chiqadi. Bunday er-xotin nizolariga oilaning boshqa a’zolari: qaynona, qaynisingil, ovsinlar va boshqalar ham aralashadi. Ijtimoiy psixologiyada gap, so’z, nizo haqidagi ma’lumot bir og’izdan chiqib, kishilarning keng tomoniga qarab harakatlana boshlaydi. Uning ko’lami ma’lumot manbayidan uzoqlashib, undan xabardor bo’lgan va unga jalb etilgan ishtirokchilar soni ortib borgan sari kengayib boraveradi. Er yoki xotin bir-

birlari bilan urishib qolganlaridan so‘ng bu haqda uchinchi bir odamga gapiradigan bo‘lsa, imkon qadar shu nizoda o‘zini aybsiz, haq qilib ko‘rsatishga, shu uchinchi odamni uning manfaatlarini himoya qilishiga og‘dirib olish maqsadida biryozlama gapiradi. Bunda subyekt foydalanadigan gap-so‘zlar, ohang, imo-ishora, mimika, urg‘u va boshqalar deyarli barcha verbal va noverbal vositalar ro‘yberib o‘tgan hodisa (nizo-janjal)ning asl holatiga qaraganda bo‘rttiribroq idrok yetilishini ta‘minlaydi. Nizo haqida qanchalik ko‘p odamga gapirib beraverilgan sayin, u ayanchli tus olgan holda avj olib boraveradi va oqibatda fojiali natijalarga ham olib kelishi mumkin. Shunday ekan, oilaviy hayotda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan nizolarga birdek salbiy jihatdan qarayverish ham, yoki ularni birdek oqlash ham maqsadga muvofiq emas. Yoshlarimiz oilaviy hayotda ro‘y beradigan biriktiruvchi nizolarga tayyo rbo‘lishlari, ularni biriktiruvchilik, er-xotinni bir-birlariga moslashuvlariga, ularning o‘zaro munosabatlarining rivojlanishini ta‘minlovchi, ularning har ikkalovining ham, ya‘ni «biz»ning manfaatiga qaratilgan nizolarning biriktiruvchanlik imkoniyatlaridan samarali foydalanishga, ularni salbiy oqibatlarga olib keluvchi nizolarga aylantirib yubormaslikka o‘rganishlari lozim. Albatta ajratuvchi «men» xarakteridagi «chegaralanmagan» nizolarni oldini olish, uning oqibatlaridan voqif bo‘lishlari ham maqsadga muvofiq. Sxemada ko‘rinib turganidek er-xotinning o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan konstruktiv nizolar aksariyat hollarda er-xotin o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qarama-qarshiliklarning hal etilishi, ularning o‘rtasida hamkorlikning yuzaga kelishi va oxir-oqibat er-xotin munosabatlarinig mustahkamlanishiga olib boradi. Ajratuvchi nizolarda yuqorida aytib o‘tganimizdek, bir nizoning hal etilishi (ya‘ni er-xotinlardan birining manfaatining qondirilishi) navbatdagi nizoning yuzagakelishiga asos yaratar ekan, o‘z navbatida bunday «men» xarakteridagi, «chegaralanmagan» nizolar tufayli er-xotin munosabatlarida nizolar «eskolasiyasi» shakllanib qoladi va oilaviy hayot er-xotin uchun «uzluksiz jang maydoni»ga aylanib qoladi. Bunday nizoli muhit nafaqat shu oiladagi er-xotinning ruhiy olamiga, ularning asabi, sog‘lig‘i, ijtimoiy holatigagina emas, balki shu oilalarda dunyoga kelib shunday muhitda tarbiyalanayotgan farzandlarning ruhiy olamiga ham jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday oilalarda hukm surgan nizoli vaziyat, doimiy janjallar mehr-oqibatizlik, o‘z asoratini faqat shu oilalarning o‘zidagina qoldirmay, balki shu oila farzandlari tomonidan tuzilajak keyingi avlodoilalariga ham o‘z asoratini olib o‘tishi mumkin. Er-xotin munosabatlarida nizolarning rivojlanish yo‘li tasviri berilgan sxemadan ko‘rinib turibdiki, yangi yuzaga kelgan oilalarda er-xotin munosabatlarining u yoki bu tarzda rivojlanishi oqibatida shartli ravishda to‘rt xil oilalar shakllanib boradi. Bular: o‘zaro munosabatlari mustahkamlangan oilalar; munosabatlari vaqtincha mustahkamlangan oilalar; yangi nizolar yuzaga kelib va takrorlanib turadigan (nizoli) oilalar; va nihoyat munosabatlar uzil-kesil ajralishib ketganoilalar. Bularning orasida eng maqbuli — 1-toifa oilalar. Yoshlarimizning har biri shunday mustahkam oila qurishga intilishlari lozim.

2-toifa oilalar munosabatlari vaqtincha mustahkamlangan oilalar. Bunday oilalarda bo‘lib o‘tgan nizolardan so‘ng er-xotinlar o‘z vaqtida bo‘lib o‘tgan nizolar, ziddiyatlardan to‘g‘ri xulosa chiqarishib, o‘z xatolarini vaqtida anglab yetib, bir birlarini tushunishga harakat qilsalar, ularda ham o‘zaro hamkorlik yuzaga kelishi mumkin. Agarda qulay shart-sharoitlar yuzaga kelmasa, er-xotinlar o‘z xatolarini tushunib yetish va ularni tuzatish borasida yetarlicha bilim, tajribaga ega bo‘lmasalar, yoki bu xatolarni bartaraf qilishni xohlamasalar, shuningdek, ularning katta yoshdagi qarindosh-urug‘lari, yaqinlari o‘zlarining boy hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan holda, yoshlarga umumiy yo‘l-yo‘riqlar, maslahatlar bermasalar, va aksincha yosh oila hayotiga noo‘rin aralashgudek bo‘lsalar bunday hollarda vaqtinchalik erishilgan zo‘riqishlarning pasayishi keyinchalik yana yangi nizolarning yuzaga kelishi bilan avj olib ketishi mumkin. Uchinchi toifa oilalar nizodan keyingi vaziyat xarakteriga ko‘ra: «nizolar qisman hal qilinadigan zo‘riqishlarning kuchayishi yangi

nizoning yuzaga kelishi _ ular yana qisman hal qilinishi» zanjiridagi oilalar bu to’rt tur oilalar ichida eng xarakterlisi va jiddiy e’tibor talab qilinadiganidir. Chunki ayrim oilalar er-xotin munosabatlari yomonligi, nizolar chuqurlashuvi, zo’riqishlar keskinlashuvi (hatto ayrim hollarda arzimagan narsalar) tufayli buzilib ketishi mumkin. Albatta, ajralish hodisasi bu nikoh oila munosabatlari uchun ayanchli. Ayniqsa, bunday hollarda oilada farzandlar bo’lsa, ular otasiz yoki onasiz qolishadi. Ajralishdan so’ng har ikki tomonning ijtimoiy ahvoli keskinlashadi. Lekin birinchi marotaba oilasi buzilga nodam kelgusi safar o’z xatolarini tuzatishi, balkim keyinchalik «o’z tengini topib» baxtli hayot kechirib ketishi ham mumkindir. Biroq 3-toifa oilalarning o’zbek etnosi uchun xarakterli yana bir jihati shuki, o’zbeklarda, shuningdek, tojik, qirg’iz, qozoqlarda ham oilalarning buzilib ketish hollariga boshqa, yevropa xalqlarida bo’lganiga nisbatan salbiy munosabatlarda bo’lish an’analari kuchli. Ya’ni ajralish jamoatchilik fikriga ko’ra qoralanadi. Buning ustiga o’zbek oilalarida qarindosh - urug’chilik nikohlari boshqa qardosh millatlar oilalariga qaraganda ko’proq uchraydi. Mabodo bunday oilalarda er-xotin munosabatlari kutilgan tarzda rivojlanmasa, ya’ni ular nizo janjalli, bir birlarini tushunmaydigan, bir-birlariga mos tushmaydigan, psixologik qovusha olmaydigan bo’lsalar ham «oilalar buzilmasin», «qarindosh-urug’chilik uzilmasin» qabilida ish tutib, qanday qilib bo’lmasin oilalarni saqlab qolishga harakat qilinadi. Hozirgi vaqtda nikoh-oila munosabatlari zaminida yuzaga keladigan noxush hodisalar, har xil asab buzilishlar kasalliklarning kelib chiqishi, har xil jinoyatlar, qotilliklar, o’z joniga qasd qilish, xiyonat, bolalar tarbiyasining buzilishi va shu kabi qator ko’ngilsizliklarning aksariyati shu 3-toifa oilalariga to’g’ri keladi. Shuning uchun ham nafaqat yoshlarimiz balki faoliyati bevosita nikoh-oila muammolari bilan bog’liq bo’lgan mutasaddi xodimlar, mahalla, hokimiyat vakillari, katta yoshdagilar ham hozirgi zamon oilasining ijtimoiy psixologik xususiyatlari, er-xotin nizolari, oilaviy nizolar psixologiyasi haqida tegishli ma’lumotlarga ega bo’lishlari maqsadga muvofiqdir. Yoshlarimiz esa er-xotin nizolarini jiddiy, ayanchli oqibatlariga olib keluvchi: ajratuvchi «men» xarakteridagi «chegaralanmagan» turlaridan ogoh bo’lishi, o’z hayotlarida shu toifa nizolarning yuzaga keltirmaslik, ularning oldini olish va bartaraf etish borasida zarur bo’lgan bilim va ma’lumotlarga ega bo’lishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <http://fayllar.org/4-mavzu-shaxslararo-munosabatlar-va-oila-muammolari-psixologik.html?page=2>
2. SHneyder L.B. Psixologiya semeynix otnosheniy: Kurslektsiy. – M.: 2000.
3. Fillipova G.G. Materinstvo: Sravnitelno-psixologicheskiy podxod // Psixologicheskiy jurnal. 1999. T. 20, №
4. Faxruddinibn Rizoutddin. Oila. – T.: Mehnat, 1991. – 64 b.